MILLIY MEROS AKADEMIYASI
NATIONAL HERITAGE ACADEMY

MADANIYATSHUNOSLIK
VA NOMODDIY MADANIY MEROS
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

“Asliyat — asl manba, asl qadriyat, asl meros”

ASLIYAT

ILMIY AXBOROTNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

Ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jurnal



2026

1-JILD | 1-SON

ASLIYAT Ilmiy axborotnomasi
https://ijacaes.uz/index.php/Asliyat/index

BUXORO VOHASI NIKOH TO‘YI MAROSIMLARINING SHAKLLANISHIDA QADIMGI DINIY QARASHLARNING O‘RNI

Zilola Shamsiyeva,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
z.shamsiyeva@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro vohasi o‘zbek va tojik aholisining nikoh to‘yi marosimlar tizimida namoyon bo‘ladigan diniy qarashlar tarixiy-etnografik va diniy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot markazida ikki qatlamning – rasmiy islom me’yorlari (nikoh xutbasi, mahr, nikoh duosi) va islomgacha bo‘lgan animistik-magik tasavvurlarning (olov va yorug‘lik kulti, ko‘z tegishidan asrash, unumdorlik magiyasi, ajdodlar ruhiga hurmat) – bir marosim ichida uyg‘unlashib ketgan sinkretik holati yotadi. Maqola avval nashr etilgan “chimildiq” marosimiga bag’ishlangan tadqiqot natijalariga tayangan holda, ularni diniy-falsafiy tahlil doirasiga kengaytiradi va mavjud ilmiy adabiyotdagi bo‘shliqlarni ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *nikoh to’yi, chimildiq, diniy sinkretizm, islomgacha e’tiqodlar, ko‘z tegishi, otinoyi, salomnoma, Buxoro vohasi.*

Аннотация: *В данной статье с историко-этнографической и религиозно-философской точек зрения анализируются религиозные взгляды, проявляющиеся в системе свадебных обрядов узбекского и таджикского населения Бухарского оазиса. В центре исследования лежит синкретичное состояние, при котором в рамках одного обряда гармонично переплетаются два пласта – нормы официального ислама (никах хутбаси, махр, молитва никах) и доисламские анимистично-магические представления (культ огня и света, оберегание от сглаза, магия плодородия, уважение к духам предков). Опираясь на результаты ранее опубликованного исследования, посвященного обряду «чимилдик», статья расширяет их рамки до религиозно-философского анализа и указывает на пробелы в существующей научной литературе.*

Ключевые слова: *свадебный обряд, чимилдик, религиозный синкретизм, доисламские верования, сглаз, отиной, саломнома, Бухарский оазис.*

Abstract: *This article analyzes the religious views manifested in the wedding ceremony system of the Uzbek and Tajik population of the Bukhara oasis from a historical-ethnographic and religious-philosophical perspective. The core of the study is the syncretic state in which two layers – official Islamic norms (nikoh khutba, mahr, nikoh prayer) and pre-Islamic animistic-magical beliefs (cult of fire and light, protection from the evil eye, fertility magic, respect for the spirits of ancestors) – harmoniously blend within a single ritual. Building upon the results of a previously published study dedicated to the "chimildiq" ritual, the article expands them into the scope of religious-philosophical analysis and highlights gaps in the existing scholarly literature.*

Keywords: *wedding ceremony, chimildiq, religious syncretism, pre-Islamic beliefs, evil eye, otinoyi, salomnoma, Bukhara oasis.*

Nikoh to‘yi marosimlari xalq hayotidagi eng qadimiy va barqaror an’analardan biridir. Buxoro vohasi nikoh to‘yi marosimlarida islomiy qadriyatlar bilan birga islomgacha

bo‘lgan animistik, totemistik va magik qarashlarning izlari ham saqlanib qolgan. Bu holat turli diniy tasavvurlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi – diniy sinkretizmni ko‘rsatadi.

Buxoro vohasi qadimda zardushtiylik va boshqa e’tiqodlar keng tarqalgan hudud bo‘lgani sababli, ularning ayrim unsurlari keyinchalik islomiy marosimlar tarkibida yangi shaklda davom etgan. Shu jihatdan nikoh marosimlarini o‘rganish Buxoro aholisi diniy qarashlari va qadimiy an’analarning tarixiy davomiyligini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Nikoh to‘yi marosimlari ham barcha oilaviy marosimlar kabi etnosga oid madaniy an’analarning uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Jahon etnologiyasida nikoh to‘y marosimlaridagi diniy tasavvurlar, turli kultlar bilan bog‘liq rasm-rusumlar, urf-odatlar yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, Buxoro vohasi nikoh to‘yi marosimlarida amal qilinadigan irim-sirimlar, rasm-rusumlar, urf-odatlarning tarixiy ildizi, ularning kelib chiqish sabablari xususida maxsus tadqiqot bugungi kungacha amalga oshirilmagan.

Buxoro vohasi aholisi ijtimoiy turmushida ham diniy tasavvurlar bilan bog‘liq udumlar o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Voha an’naviy nikoh to‘ylarida o‘tkaziladigan va hozirgacha amal qilinadigan kelin va kuni olov atrofida aylantirish(toj.”olavgardon”), chimildiqqa kirishda kelin va kuyov boshi ustida non tutish, qudalarga oqlik tarqatish, kelin va mehmonlarga isiriq solish, aylantirish kabi ayrim rasm-rusumlar muayyan magik maqsadda o‘tkaziladigan irimlar sifatida shakllangan. Nikoh to‘y marosimlaridagi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq udumlarning asosiy maqsadi kelajakda baxtli-saodatli, serfarzand, mustahkam, havas qilsa arzigulik oila yaratishdan iborat.

Buxoro vohasi nikoh to‘yi marosimlari oilaviy turmush va ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lib, uning ishtirokchilari tomonidan murakkab urf-odatlar va udumlar,rasm-rusumlar bajarilgan. Bugungi kunda ham nikoh to‘yi bilan bog‘liq marosimlarda ko‘plab qadimiy e’tiqodlar, shu jumladan, fetishizm, totemizm, turli kultlar va zardushtiylik bilan bog‘liq urf-odatlar, ajdodlar ruhiga sig‘inish izlarini uchratish mumkin.Voha nikoh to‘yi marosimlarining ayrimlari ayrim sovet etnograflari tomonidan qisman tadqiq etilgan bo‘lsa-da, marosimlarning genezisi, rivojlanish tarixi, davrlar mobaynida transformatsiyaga uchraganligi, marosimlarning o‘tkazilish tartibiga e’tiqodiy, diniy omillarning ta’siri bugungi kungacha to‘liq o‘rganilmagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining oilaviy marosimlaridagi diniy-mifologik qatlam sovet davri etnografiyasida keng o'rganilgan. N.A.Kislyakov o‘zining Markaziy Osiyo va Qozog'iston xalqlari oila va nikoh tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida nikoh marosimlarining ijtimoiy-huquqiy tomoni bilan bir qatorda ularning magik-diniy funksiyalariga ham to'xtalgan. O.A.Suxareva Samarqand tojiklari va boshqa hududlar misolida nikoh marosimlarining tafsilotlarini yozib qoldirgan, biroq uning tadqiqoti bevosita Buxoro vohasini qamrab olmagan. N.P. Lobacheva o‘zbek xalqi orasida yangi nikoh marosimining shakllanish jarayonini tahlil qilgan, biroq bu tadqiqot sovet davri mafkuraviy sharoitida yozilganligi sababli diniy jihatlarga ehtiyotkorlik bilan yondashilgan.

Etnograf O.A.Suxareva o‘z tadqiqotlarida Buxoro, Samarqanddagi nikoh to‘yi marosimlarini qisman tahlil etgan. Ayniqsa, u o‘zining 1960-yilda nashr etilgan asarida zamon yoshlarining nikoh to‘yi marosimlari davomida diniy urf-odatlardan voz

kechayotganligini, hattoki bu urf-odatlarni amalga oshirilganda zamondoshlari, tengdoshlari kulgisiga ostiga uchrashini aytib o‘tgan. Bundan tashqari, O.A. Suxareva diniy nikoh to‘ylari qatorida o‘sha davrda “qizil to‘y”lar (yangi to‘ylar) o‘tkazilganligini, bu to‘ylarda erkaklar va ayollar birga ishtirok etganligini yozib qoldirgan. Shuningdek, olima nikoh sarqiti hisoblangan “qalin“ berish odatining ham yo‘qolib borayotganligini, ayrim joylarda bu odat sovg‘a ko‘rinishiga aylanayotganligini aytib o‘tgan [1; 82-83].

Aholining islomgacha bo‘lgan e’tiqodiy qarashlarini etnograf N.P. Lobachova ham o‘z tadqiqotlarida tahlil qiladi [2; 103]. Olima o‘zbeklar hayotiga yangicha to‘y-tantanalar- “qizil to‘y”, “komsomol to‘y”, “baynalmilal nikoh” kirib kelganligini o‘rganadi [3; 45-68].

G.P.Snesaryov to‘y marosimidagi kelin va kuyovga o‘qitilgan nikohdan boshqa barcha bosqichlarida turli-tuman ibtidoiy, islomgacha dinlar bilan bog‘liq udumlari bilan to‘lib toshganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, olim ushbu asarida nikoh to‘yi bilan bog‘liq fotiha to‘yi marosimi, “oyna ko‘rsatar” udumi bilan bog‘liq qarashlarini ifoda etadi [4; 72-87].

Etnolog olim A.Ashirov esa o‘z tadqiqotida Farg‘ona vodiysi misolida nikoh marosimlarida hozirgacha faol bo‘lgan demonologik tasavvurlar va sehr-joduga aloqador bo‘lgan rasm-rusumlarning genezisi va ahamiyati haqida to‘liq ma’lumot bergan [5]. Bundan tashqari, olim o‘zining “O‘zbek madaniyatida suv” nomli kitobida oilaviy munosabatlarda suvning roli, shu jumladan “nikoh suvi” bilan bog‘liq fikrlarni qayd etgan. Jumladan, kitobda keltirilishicha, nikoh to‘yi marosimi jarayonida “maxsus suvchilar” bo‘lib, ular tuyga tashrif buyurgan aziz mehmonlarning quliga suv quygan va qo‘lni yuvishda ishlatiladigan obdasta va chilopchinni ushlab turgan. Odatda, bunday ishlarni mahalla va eng yaqin qavm-qarindoshlarinig o‘smir farzandlari bajarishgan. Qo‘l yuvishda foydalanilgan suv uyning bir chekkasida to‘kilgan. E’tiborli jihati shundaki, Buxoro vohasida ushbu odat ertalabgi “nahor oshi” marosimida amalga oshiriladi. Suv quyadigan yigitlar mehmonlarning qo‘liga suv quyib, so‘ng ularga piyolalarga solib tayyorlab qo‘yilgan shirin “gulob” berishadi. A.Ashirovning aytishicha, vodiydagi nikoh to‘yi marosimlari tarkibiga kiruvchi “fotiha to‘yi”da kuyov tarafidan qiz (kelin)ning otasi xonadoniga tashrif buyurgan mehmonlarga dastlab “shirin suv” olib kelinadi [6; 158].

Nikoh to‘yi marosimlariga diniy omillarning ta’siri xususida boshqa mahalliy etnologlar ham o‘z tadqiqotlarida to‘xtalib o‘tishgan. Jumladan, XIX asr oxiri XX asr boshida Yuqori Zarafshon vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlarining o‘tkazilish tartibini tadqiq etgan S.A.Soatova ham o‘z dissertatsiyasida nikoh to‘yi marosimlaridagi islomgacha bo‘lgan diniy tasavvurlar bilan bog‘liq urf-odatlarni tahlil qilgan [7; 157].

Etnopsixolog Z.Rasulova o‘zining monografiyasida qalin berish misolida nikoh to‘yigacha bo‘lgan marosimlarni tahlil qilgan. Monografiyada qalinning yashovchanlik siri sabablari va bugungi kundagi zaruriyati, qalin tushunchasi va uning tarixi, qalin va mahr o‘rtasidagi farq masalalari, Shuningdek, qalin berish va uni bekor kilish bilan bog’lik odatlar hamda uning hajmi masalalari yoritiladi. Olima qalin tushunchasi va uning tarixi, qalinni bekor qiluvchi odatlar, qalinning hajmi, o‘zbeklar xayotida qalinning tutgan o‘rni xususida alohida to‘xtalib o‘tgan [8; 66-83]. Shuningdek, Z.Rasulova “Diniy nikoh va poliginiya” maqolasida diniy nikoh va ko‘pxotinlilik masalalari xususida ham so‘z yuritgan [9; 66-83].

Buxoro vohasida ham XX ars o‘rtalaridan qizning ota-onasiga “sut puli” (toj. “shir puli”) berish urf-odatga aylangan. Mazkur udum orqali qizni voyaga yetkazishdagi ota-onaning mehnati va mas’uliyatiga ramziy hurmat ifoda etilgan. Shu bilan birga, “sut puli” nikoh munosabatlarining ijtimoiy mustahkamlanishi hamda ikki oila o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalarini kuchaytirishga xizmat qilgan etnomadaniy an’ana sifatida ahamiyat kasb etgan [10].

Buxoro vohasi nikoh to‘yi marosimlari misolida ko'rsatildiki, mintaqa aholisining diniy dunyoqarashi bir yaxlit, bir jinsli tizim emas, balki rasmiy islom me'yorlari bilan islomgacha davrdan meros bo‘lib qolgan animistik-magik tasavvurlarning tarixiy jihatdan qatlamlanib, o‘zaro singib ketgan murakkab sinkretik tuzilmadir. Bu sinkretizm marosim ijrochilari tarkibida (otinoyi va kayvoni), marosim buyumlarida (isiriq, tuz, anor, tuxum, oyna) hamda og‘zaki janrlarda (salomnoma) bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi.

Mavzuning yanada chuqur yoritilishi uchun kelgusi tadqiqotlarda quyidagi yo‘nalishlar istiqbolli hisoblanadi: birinchidan, respondentlarning o‘z udumlarini diniy yoki dunyoviy deb qanday anglashini aniqlashga qaratilgan maxsus sotsiologik-antropologik so'rovnoma o‘tkazish; ikkinchidan, Buxoro vohasi ma’lumotlarini Xorazm, Farg‘ona va Qashqadaryo kabi boshqa mintaqalar bilan diniy qarashlar darajasida (nafaqat marosim tartibi darajasida) qiyoslash; uchinchidan, diniy huquq (fiqh) mutaxassislari bilan hamkorlikda xalq amaliyotlarining shariat me’yorlariga munosabatini aniq ilmiy-diniy mezonlar asosida baholash. Ushbu yo‘nalishlar mavzuni nafaqat etnografik, balki diniyshunoslik va ijtimoiy antropologiya fanlari kesimida ham yanada mustahkam ilmiy asosga qo‘yishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сухарева О.А. Ислам в Узбекистане. Ташкент, 1960.-С.82-83.

2. Лобачёва Н.П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана. – «Домусульманские верования и обряды в Средней Азии». М., 1975.-С.103.

3. Лобачева Н.П. Формирования новой обрядности узбеков. – М.,1975.–С.45-68.

4. Снесарев Г.П. «Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма». М.:Наука, 1969.-С.72-87.

5. Аширов А.А. Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар изи. Тарих фан номзоди дис. – Тошкент, 2000; Ўзбек халқи анъанавий турмуш тарзида қадимий диний эътиқодлар. (Фарғона водийси материаллари асосида). Тарих фан.док. ...дис. – Тошкент,2008.

6. Аширов А.А. Ўзбек маданиятида сув. – Тошкент: Akademnashr, 2020. – Б.158.

7. Соатова С.А. Юқори Зарафшон воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. 1999. –Б.98-108.

8. Расулова З. Ўзбекларнинг никох тўйигача булган маросимлари (қалин бериш одати мисолида). Т.: «Fan va texnologiya», 2009. – Б.66-83.

9. Расулова З. Диний никоҳ ва полигиния/Жамият ва бошқарув. –2008. – N 4. – Б.108-110.